

## MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA TALABALARGA TASAVVUF TA'LIMOTINI O'RGATISH YO'LLARI

**Matluba Amonova Akbar qizi**

*Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

[Farkhodnizomov22@gmail.com](mailto:Farkhodnizomov22@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizda alohida o'rin tutadigan tasavvuf tarixi, uning shakllanishi, yurtimizda yuzaga kelgan kubroviyalik, yassaviylik, naqshbandiylik kabi tasavvuf tariqatlarining ba'zi muhim jihatlarini talabalarga o'rgatish haqida ayrim tavsiyalar berib o'tildi. Muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tasavvuf ilmini o'rganish va o'rgatishga oid ilmiy-nazariy fikrlar yordamida asoslashga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, tariqat, hol, kubrovaiylik, yassaviylik, naqshbandiylik, so'fiy, tasavvuf falsafasi, g'oya, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, muammo, tahlil, yechim.

**Annotation:** In this article, the history of Sufism, which has a special place in our classical literature, its formation, some important aspects of Sufism, such as Kubrovianism, Yassavism, and Nakshbandism, which arose in our country, were given some recommendations for teaching students. On the basis of problem-based educational technology, an attempt was made to substantiate the scientific and theoretical ideas related to the study and teaching of Sufism.

**Key words:** Sufism, tariqat, case, Kubrovianism, Yassavism, Naqsh-bandism, sufi, sufism philosophy, idea, problematic education, problematic situation, problem, analysis, solution.

### KIRISH

Bugungi kunda ta'lim dargohlarida kamol topayotgan yoshlarga yangicha qarash, o'zgacha yondashuv asosida bilim berish muhim vazifa hisoblanadi. Tarbiyaga yangicha pedagogik tafakkur nuqtayi nazaridan yondashish orqali ularda sifatli bilim, dars samaradorligi, o'rganuvchining qiziqishi ortishi, umuminsoniy fazilatlarining kamol topishi kabi ko'nikmalar yuzaga keladi. Shu jihatdan, ajdodlarimiz uzoq yillardan beri e'zozlab kelayotgan, turkiy xalqlar madaniy merosi bo'lgan tasavvuf g'oyalari, tasavvufiy qarashlarni o'rgatish, yoshlar ongida tasavvufiy axloqni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, tasavvuf tarixi bu millatimizning asl ma'naviyatidan bo'lishimizga asos bo'lib xizmat qiladigan muhim mezon hisoblanadi.

Tasavvuf ta'limotini o'rganish, unda ilgari surilgan islomiy aqidalar mazmun-mohiyatini shuurlarga singdirish insonni ma'nau yuksaltiradi, komillik sari boshlaydi. U asrlar osha ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotga, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy jarayonga faol ijobiy ta'sir ko'rsatib keldi. Shu sababli tasavvuf tarixiga oid asarlarni o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, tasavvufiy g'oyalar ifodalangan badiiyat manbalarini o'rganish, tasavvufning tushunilishi murakkab istilohlari mohiyatini anglash, mumtoz asarlarimiz zamiriga yashiringan asrorlar silsiladidan bahramand bo'lish muhim o'rin tutadi. Tasavvuf adabiyoti, uning manbalari, anglash murakkab tushunchalarini talabalarga osonroq tushuntirish esa yana ham dolzarb masala hisoblanadi. Maqola ayni shu jihatlariga e'tibor qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Ushbu maqolani yoritishda atoqli adabiyotshunos olimlar II qismdan iborat "Tasavvuf" kitobining muallifi N. Komilov, navoiyshunos va tasavvufshunos olim I. Haqqulov, adabiyotshunos G'. As-Salom, mumtoz adabiyotimizning yetuk olimlari M. Muhiddinov, Sh. Sirojiddinov, E. Ochilov, Yo. Is'hoqov, kabi olimlarning hamda shu sohaga oid ilmiy tadqiqot olib brogan O. Toshmuhammedovning tasavvuf tarixi, tasavvufshunoslik va adabiyotshunoslikka oid nazariya va ilmiy qarashlariga e'tibor qaratildi. Tahlil etilayotgan mavzuga oid ilmiy mulohazalar va darslikda keltirilgan adabiy parcha va nazariy fikrlarga, internet saytlarida mavzuimizga dahldor o'rinlariga tayanilgan holda fikrlar bildirildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib ilmiy ma'ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

Tasavvufning kishilik tarixida tutgan o'rni qadimiy davrlarga borib taqaladi. Uning tadriji kishilik jamiyatining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. "Tasavvuf – muomala madaniyati. U til va dil yumshoqligiga, o'zgalardan keladigan ranj-u ozorlarni ham halimlik bilan, g'azab va adovat pichog'iga sira qo'l cho'zmasdan bartaraf etishga o'rgatadi. Tasavvuf ahlining nodir axloqi go'zal fazilatlariga boy"[2; 5].

Mustaqillik tufayli tasavvuf ta'limotini o'rganish, mohiyatini anglash, hayot tarzimizga chuqur singdirishga keng imkoniyat yaratildi. Bizga boy ma'naviy meros qoldirgan tasavvuf ta'limoti olimlari-buyuk bobolarimiz hayoti, ijodiy faoliyatini o'rganishga kirishildi, asarlari qayta-qayta nashr etildi. Mamlakatimizning deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida tassavvuf adabiyoti, uning atoqli namoyondalari asarlari, tassavvufiy madaniyatning o'ziga xos qirralari, ijodkorlar asarlarida ilgari surilgan turli g'oya va qarashlar alohida o'rganilmoqda. Bu borada talablarga chuqur bilim berilmoqda. Mohir tasavvufshunos olim N. Komilov o'zining "Tasavvuf" darsligida tasavvuf falsafasi, tasavvufning eng muhim xususiyatlari, uning kishilik jamiyatida uzoq zamonlardan buyon mavjudligiga to'rtta asosiy jihat sifatida ushbularni ta'kidlaydi: Birinchidan, insonni "olam mehvari" deb bilish, olamdagi barcha harakat

voqea-hodisani inson orqali mushohada etish; Ikkinchidan, Parvardigor uning sifatlarini faqat aql bilan emas, balki mukoshafa, kashf-u karomat, hol-sukra orqali anglash; Uchinchidan, bor ilmlarni egallash bilan qanoatlanmasdan, balki ruhni chiniqtirib, qalbni poklash tufayli cheksiz kamolatga intilish; To'rtinchidan, Ilohiy ishq orqali poklanish va pok Parvardigor vasligiga yetishish g'oyasidir. [3; 245-251]. Muallif ushbu to'rt xususiyatga batafsil ilmiy mulohazalarini davom ettiradi.

Xalqimiz o'zining tarixi, boy ma'daniyati, jahon pedagogikasiga munosib ulush bo'lib qo'shilgan islomiy qadriyatlari, xususan, tasavvuf ilmi namunalari ega. Ular esa badiiy adabiyotda o'z ifosadisini topgan. Tasavvuf sohiblari o'z qarashlarini yetkazishda adabiyotdan foydalanganlar.

Uning tarixi va rivojlanishi davomida "tasavvuf" va "so'fiylik" atamaları bir ma'noda qo'llanib kelingan. Bu tushunchaning paydo bo'lishi va tarixiy ildizi haqida shunday mulohazalar bayon etilgan: "Tasavvuf, sufiylik — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limotdir. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xalidning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar" [5], deyilgan.

Atoqli olim E.E. Bertels "Sharq adabiyotini tasavvuf ta'limotidan ajratib o'rganib bo'lmaydi" [3; 193] degan fikrni bayon etgan edi. Shu bois mumtoz ijodkorlardan birining ijodiy mersosidan bahramand bo'lgan vaqtda unda uchraydigan tassavufiy istilohlar, ba'zi murakkab baytlarni tahlilga tortganda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday holatda islom ta'limoti, tasavvuf asoslaridan bexabar o'quvchi misralarni tushunishi va sharhlashi qiyin. Dastlab yurtimizda mavjud uch buyuk tasavvuf tariqati Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya haqida ma'lumot berish yaxshi samara beradi. Nima uchun ayni shu uch yo'lga Markaziy Osiyo xalqlarining e'tiqodi baland, nima sababdan biz yuqorida nomlarini keltirilgan ijodkorlar bu tariqatlarga amal qilganlarini ularga yaxshilab tushuntirib berish lozim.

XII asrda Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf — Yassaviya tariqati bo'lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur "Hikmat" asarida bayon etilgan. Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi. Undagi tushkunlikning ustunligiga sabab esa mo'g'ullar zulmining eng kuchaygan, uning fojeali oqibatlari zo'raygan davrga to'g'ri kelganligidir. "Jamiyatda

kelgindilar zulmi natijasida avj olgan ma'naviy parokandalikning oldini olish, ularda xudoga qattiq e'tiqod e'tiqod qo'yish orqali kelajakka umid ko'zi bilan qarash kayfiyatini kuchaytirishga intilish Yassaviya tariqatining mohiyatini tashkil etadi" [4;16].

XII asr oxirida Xorazmda yuzga kelgan mashhur tariqat Kubroviyadir. Yassaviy tariqatidan farqli o'laroq, Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Bu tariqat kishilarda halollik, poklik, odamiylik, o'zgalarga yaxshilik qilish kabi fazilatlarni kamol toptiradi. Har xil shahvoniy havaslardan yiroq bo'lishga chorlaydi.

XIV asrda Buxoroda paydo bo'lgan navbatdagi tariqatlardan biri Naqshbandiya hisoblanadi. Xoja Bahouddin "Hayotnoma" va "Dalil al-oshiqin" nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning "Dil bayor-u dast bakor" ("ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin") degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. "...bu ta'limotga ko'ra, talaba-yoshlarimiz taqdirga ishonib loqayd bo'lishga emas, balki hunar o'rganib, mehnat qilishga chaqiriladi. Xudoga dilni jo etib, har bir talaba halol o'qishi, mehnat qilib yashashga harakat qilmog'i kerak"ligi ilgari suriladi [4; 17]. Bu kabi ma'lumotlar berilgach, talabalar o'zlari bilgan ma'lumotlarni jamlab oladi.

Yangi berilgan axborotlarni bilib oladi. O'rgangan ma'lumotlarini solishtiradi, farqli tomonlarini qayd etadi.

## **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Darsni amarali qilishining yana bir yo'li bu – dars mashg'ulotlarida muammoli vaziyatlardan foydalanish hisoblanadi.

**Muammoli ta'lim texnologiyasi ayni shu jarayonda qo'l keladi. Ushbu metoddan foydalangan** "V. Marasman, D. Saladkova, T. Kudryavsev, N. Kudryashov, M.Lisaxina, L. Ayzerman va boshqalar adabiyot darslarida muammoli ta'limdan foydalanishda biror mavzuni imkon qadar chuqurroq tushunishni ta'minlash va ta'lim jarayoni faollashishga erishishni nazarda tutishgan" [1;170].

Shu jihatdan, mazkur texnologiya asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- muammoli vaziyat yaratish orqali adabiy ta'lim samaradorligini oshirish;

-o'quvchilar ijodiy tafakkurini o'stirish, faolligini oshirish;  
-o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri erkin ifodalay olish qobiliyatini shakllantiradi;

- mashg'ulotni qizg'in bahs-munozara shaklida bo'lishini ta'minlaydi.

Muammoli vaziyat tufayli qo'yilgan savol sabab yuzaga kelgan munozara jarayonida har bir o'quvchi Milliy ma'naviyatimiz mezonlarini bilsa, o'z dunyosiga, o'z fikriga, o'z xulosasiga ega bo'lsa maqsadga erishilgan bo'ladi.

Dars jarayonida muammoli vaziyat variantlaridan foydalanish esa bir tomondan, o'quvchilarning asar yoki uning muallifi haqidagi tushunchalarini mukammallashtirsa, ikkinchi tomondan, ularni fikrlashga undaydi. Tasavvuf allomalarining ijodi yoki biror asari o'quvchilar tomonidan ovoz chiqarib o'qitilgach, tayyor-langani muammoli vaziyat variantlari slayd shaklida namoyish etiladi yoki qog'ozda tarqatiladi. Agar o'qituvchi tarqatma material variantidan foydalansa, unda o'quvchilarga eslab olishlari uchun vaqt tejaladi. Biz yuqorida keltirgan uch alloma haqidagi ma'lumotlar asosida ham muammoli vaziyatni hosil qilishimiz mumkin. Bunda ularning tariqat yo'liga oid farqli jihat, asarlaridagi o'xshashliklar, ularda tariqatga kirgan kishi (solik)ga xos umumiy va farqli tomonlarga e'tibor qaratiladi. Yuzaga kelgan muammoga xolis baho beriladi. Muammoning kelib chiqish sabablari o'rganiladi. Har bir ma'lumotga diqqat qaratiladi.

Muammoli vaziyat varianti. Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etiladi.

**Muammo:** nima uchun Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va tarkidunyochilik targ'ib qilinadi.

O'quvchilar berilgan muammoga o'zlari bilganicha, yuqoridagi ma'lumotlar-dan kelib chiqib javob beradilar. Bunda ularning tasavvuf adabiyoti haqidagi bilim-lari ham qimmatli ahamiyatga ega. O'quvchilar tomonidan aytilgan javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin:

**1-javob:** Ahmad Yassaviy umri oxirigacha Alloh taolaga ibodat qiladi ammo to'la ma'noda Yaratganni anglamaydi. O'z tariqatini yashirin targ'ib etish uchun bu usuldan foydalanadi.

**2-javob:** Yassaviyada mashaqqatli mehnat orqali maqsadga erishish, tasavvufning to'rt bosqichining barchasini navbat-navbat bosib o'tish uchun, bu yo'l nihoyasida haqiqat bosqichiga chiqish uchun tarki dunyo qiladi.

**3-javob:** mo'g'ullar zulmining eng kuchaygan, uning fojeali oqibatlari zo'raygan davrga to'g'ri kelganligi uchun u tarki dunyo qiladi.

**Muammoli vaziyat varianti.** Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad eta-di. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi.

**Muammo:** nima sababdan Kubroviyada kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi.

Berilgan javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin:

**1-javob:** Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etishi orqali mashaqqatli mehnat jarayonini ulug'laydi, mehnat qilish orqali kishi o'z niyatiga yetadi deya o'ylagani sababli.

**2-javob:** Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etish kabi xususiyatlar borligi uchun.

**3-javob:** Bu tariqat kishilarda halollik, poklik, odamiylik, o'zgalarga yaxshilik qilish kabi fazilatlarni kamol toptirishga da'vat etganigi sababli tarki dunyochilikni rad etadi. Odamlar bilan odamlar orasida bo'lishga da'vat etgani uchun.

## XULOSA

Xuddi shunga o'xshab boshqa allomlarning ham ijodini o'rganish, ularning yaratgan badiiy asarlarini tahlil qilish, qo'yilgan savollarga javob topish mumkin. Dars mashg'ulotlarida **muammoli vaziyat usulidan foydalanib o'quvchilarning butun bir asarni o'zlashtirib olishi, mutasavvif ijodkor hayoti, adabiy merosini puxta o'rganishga zamin yaratish mumkin.** Ushbu texnologiya yordamida darslarning tashkil etilishi talaba va o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi hamda ularning xotirasida muhim ma'lumotlarning qolishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga o'quvchilarning uzviy fikrlashi, ma'lum mavzu yuzasidan mulohaza-larini mantiqiy bog'liqlikda bayon eta olish ko'nikmasi shakllanishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi" nash. 2009.170-bet.
2. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991- yil. 284 bet.
3. Najmiddin Komilov Tasavvuf. Darslik. "Movarounahr"- "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent: 2009. 448 bet.
4. Toshmurodova Q. Tasavvuf ta'limotini o'rganishda talaba-yoshlar shaxsini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. Ilmiy dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent: 2006. 16-bet.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasavvuf>